

TO'LOQINOVA Iroda Abduqayum qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik yo'nalishi magistranti
irodaturdimirzayeveva@gmail.com

ABU NASR FOROBIYNING KALOM ILMIGA MUNOSABATI

ABU NASR FARABI'S ATTITUDE TOWARD THE SCIENCE OF ALAM

ОТНОШЕНИЕ АБУ НАСР АЛЬ- ФАРАБИ К НАУКЕ КАЛАМА

Annotatsiya. Ushbu maqola buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning "Ihsa al-ulum" asaridagi kalom ilmiga oid qarashlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Asarda Forobiy o'sha davrlarda mavjud bo'lgan ilmlarni besh bo'limga bo'lib, oxirgi bo'limda o'zining kalom ilmiga munosabatini bildiradi. Forobiy "Ihsa al-ulum" da kalom ilmiga oid eng mukammal ta'riflardan birini beradi. Shuningdek, muallif Forobiyning kalom ilmiga bergan ta'rifini va uning ushbu ilm haqida qarashlarini yoritgan. Manbalarda kalom ilmiga oid dastlabki ta'rifni Forobiy bergan degan ma'lumotlar ham keltirilgan bo'lib, maqolada ularning qay darajada asosli ekanini yoritiladi.

Kalit so'zlar: kalom, sinoa, usul ad-din, malaka, shialik.

Annotation. This article is devoted to an analysis of the views of the great thinker Abu Nasr al-Farabi on the science of kalam as presented in his work Ihsa al-Ulum. In this work, al-Farabi divides the sciences existing in his time into five categories and, in the final section, expresses his attitude toward the science of kalam. In Ihsa al-Ulum, al-Farabi offers one of the most comprehensive definitions of the science of kalam. The article also examines al-Farabi's definition of kalam and his views on this discipline. Moreover, some sources claim that the earliest definition of the science of kalam was given by al-Farabi, and the article discusses the extent to which such claims are well founded.

Keywords: kalam, sinoa, usul al-din, malaka, Shi'ism.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу взглядов великого мыслителя Абу Насра аль-Фараби на науку калам, изложенных в его труде «Ихса аль-улум». В этом сочинении аль-Фараби разделяет науки, существовавшие в его эпоху, на

пять разделов, в последнем из которых формулирует свое отношение к каламу. В «Ихса аль-улум» мыслитель дает одно из наиболее совершенных определений этой дисциплины. Кроме того, автором освещаются предложенная аль-Фараби дефиниция калама и его концептуальные взгляды на данную науку. В источниках также встречаются сведения о том, что первое научное определение калама принадлежит именно аль-Фараби; в статье анализируется степень обоснованности подобных утверждений.

Ключевые слова: калам, сынаа, усуль ад-дин, малака, шиизм.

KIRISH

Kalom ilmining ta'rifini bayon qilgan kitoblarga qaralsa, tarix davomida berilgan ta'riflarning bir-biridan farq qilganligini ko'rishimiz mumkin. Buning ikki muhim sababi bor. Birinchisi bu ilmni ta'rif qilganlarning bir qismi kalom ilmining maqsadini e'tiborga olib ta'rif qilgan. Ikkinchisi esa kalom ilmini mavzusidan kelib chiqqan holda ta'riflaganlar.

Kalom ilmiga ilk bor mu'tazila oqimi tomonidan asos solingan degan qarash mavjud bo'lsa-da, mu'tazila manbalarida kalom ilmiga oid hech qanday ta'rif uchramaydi. Aksincha, mashhur mu'taziliy mutakallimi Qozi Abduljabbor ibn Ahmad (vaf. 415/1024), mu'tazila mazhabining mashhur besh e'tiqodiy tamoyilini sharhlash maqsadida yozgan "Sharhu usul al-xomsa" nomli asarida islom e'tiqod asoslarini bayon qilar ekan, "kalom ilmi" atamasi o'rniga "usul ad-din" atamasidan foydalanadi. Ahli sunna e'tiqodining Ash'araiy mazhabi asoschisi Abul Hasan Ash'ariy ham kalom ilmi o'rnida "usul ad-din" va "usul at-tavhid" atamalarini qo'llagan [3:335-348]. Ahli sunna e'tiqodining Moturudiy mazhabi asoschisi Abu Mansur Moturudiy esa kalom ilmiga oid yozgan asarini "Kitob at-tavhid" deb nomladi. Kitob at-tavhid Moturidiyini mutakallim sifatida shuhrat cho'qqisiga olib chiqqan eng muhim asarlaridan biri hisoblangan. Chunki bu asar to'laqonli bir kalom kitobi bo'lib, kalomiy qarashlari nuqtai nazaridan Moturidiyning eng muhim tadqiqotidir. Shu sababdan, Moturidiyning kalom ilmida tutgan o'rnini aniqlash va uning kalomiy qarashlarini yaxlit holda o'rganish uchun, shubhasiz, ana shu asarni tahlil qilish lozim bo'ladi [5:325-260].

ASOSIY QISM

Abu Nasr Forobiy ham siyosat, fiqh va kalom ilmlari ustida chuqur tadqiqotlar olib borib, bu sohalarida muhim nazariyalar yaratgan mutafakkirdir. Uning bu sohalaridagi qarashlari hozirgi kunda ham ko'plab olimlar va mutafakkirlar uchun manba bo'lib xizmat qilmoqda. U siyosatda – adalat, fiqhda – axloqiy tamoyillar, kalomda esa – aql va vahiy o'rtasidagi muvozanatning ahamiyatini ilgari surgan. Forobiyning siyosat, fiqh va kalomga oid qarashlari shuni ko'rsatadiki, u nafaqat faylasuf, balki huquqshunos va ilohiyotchi sifatida ham chuqur bilimga ega edi. Uning fikrlari faqat nazariy mulohazalar emas, balki jamiyat hayotiga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan amaliy g'oyalar edi [4:32-33].

Kalom ilmi Abu Nasr Forobiyning falsafiy fikrlarining yana bir muhim sohasini tashkil etgan ilmlardan biridir. Kalom – bu ilohiy masalalarni mantiqiy doirada muhokama qilishni maqsad qilgan bir fan bo'lib, Forobiyning bu sohadagi qarashlari ham o'ziga xosdir. Forobiy, aql va vahiy o'rtasida muvozanat o'rnatadi va insonning haqiqatga yetishida har ikkisi ham muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Kalom ilmida Forobiy borliq nazariyasi ustida to'xtalib o'tadi va mavjud bo'lgan har bir narsaning bir sababi borligini ilgari suradi. U bu sabablarni ilohiy mavjudot sifatida ko'radi va hamma narsaning manbai shu ilohiy mavjudotdan kelib chiqishini bayon qiladi [4:32-33].

Forobiyning kalomga munosabatini ikki asosiy yo'nalishda tahlil qilish mumkin va bu ikki yo'nalishdan birini boshqasidan ustun qo'yish qiyin.

Birinchi yo'nalish Forobiyning turli risolalarida kalom ilmining asosiy mavzulari bo'yicha bildirilgan fikrlari uchraydi. Masalan, u quyidagi masalalarni muhokama qiladi:

Allohning sifatleri masalasi, bo'linmaydigan zarra tushunchasi, sababiyat – olamdagi harakat va o'zgarishlarning oqilona tartibi, olam qadim yoki hodismi? – borliqning boshlanishi haqidagi mashhur kalomiy-falsafiy bahs.

Bu masalalar Forobiyning falsafiy qarashlarida muhim o'rin tutadi va uning kalomiy muammolarga befarq bo'lmaganini ko'rsatadi.

Ikkinchi yo'nalish Forobiy "Ihso al-'ulum" nomli mashhur asarida kalom ilmiga juda aniq,

mantiqan tartiblangan va tarix davomida eng mukammal deb tan olingan ta'rifni beradi. Tadqiqotchilar bu ta'rifni kalom ilmi uchun berilgan eng izchil, eng ilmiy asoslangan tushuncha deb baholaganlar.

Forobiy kalom ilmini diniy e'tiqod asoslarini mantiqiy dalillar bilan himoya qiluvchi ilm sifatida talqin qiladi. Uning ta'rifida kalomning vazifasi – diniy qarashlarni turli fikriy e'tirozlarga qarshi himoya qilish, ularni mantiqiy asoslash va jamiyatda barqaror e'tiqodiy muhitni ta'minlashdan iborat ekani juda aniq ta'kidlanadi.

Forobiy tomonidan kalom ilmiga berilgan ta'rif – yuqorida ta'kidlanganidek – uning mashhur "Ihso al-'ulum" asarida keltiriladi. Bu asar Forobiyning umumiy ma'noda ham, xususan musulmon faylasuflari orasida ham alohida ajratib turadigan noyob kitoblardan biridir. Shuni eslatish kifoyaki, aynan mana shu asar tufayli Forobiy "Muallimi soniy" unvoniga sazovor bo'lgan. Chunki u ushbu asarda o'z zamonida mavjud bo'lgan barcha ilmlarning – mahalliy yoki tashqi manbalardan kirib kelgan bo'lsin – chegaralarini, mavzularini va o'zaro bog'liqligini aniq belgilab bergan [6:109-117].

Ushbu asarda Forobiy ilmlarni beshta asosiy bo'limga ajratadi. Faylasuf ularni metodik va ta'limiy mezonlar asosida tartiblaydi.

Avvalo til ilmi va uning bo'limlari (nahv, sarf, balog'a va boshqalar)ni keltiradi.

So'ng mantiq ilmi va uning qismlarini sanaydi. Chunki til va mantiq – barcha boshqa fanlarga kirish yo'li va vosita hisoblanadi.

Keyin u riyoziy ta'limlar (hisob, handasa, musiqa, astronomiya) va ularga oid fanlarni bayon qiladi.

Shundan so'ng tabiiyot (fizika) va uning bo'limlarini, so'ng ilohiyot (metafizika) va uning bo'limlarini zikr qiladi.

Nihoyat, madaniy ilmga o'tadi. Ushbu ilmnin tarkibiy qismlaridan biri siyosat, biri axloq, yana biri fiqh, eng oxirgisi esa kalom ilmidir [1:71].

Forobiy kalom ilmiga oxirgi o'rinni berganining sababi shuki, kalom bevosita diniy e'tiqod (aqida) va siyosiy boshqaruv bilan bog'liqdir. Zero, dinni himoya qilish, aqidani saqlash va e'tiqod asoslarini mustahkamlash – oxir-oqibatda xalifa, amir yoki siyosiy rahbariyat zimmasiga yuklatilgan

vazifa sifatida ko‘rilgan. Shu bois kalomni davlat boshqaruvi va diniy siyosat bilan bog‘liq ilm sifatida baholaydi [6:109-117].

Kalom ilmiga birinchi ta‘rif bergan shaxs Abu Nasr Forobiydir [3:335-348] Forobiy “Ihso al-ulum” asarida kalom ilmiga quyidagi ta‘rifni bergan:

وصناعة الكلام يقتدر بها الانسان على نصره الآراء
والافعال المحدودة التي صرح بها واضع الملة [843-533:1]
وتزييف كل ما خالفها بالأقوال

“Kalom ilmi – bu din asoschisi belgilab bergan e‘tiqod va amallarni himoya qilish, ularga zid bo‘lgan qarashlarni esa dalil va so‘z yordamida rad etishga xizmat qiladigan ilmdir”.

Bu ta‘rifni diqqat bilan o‘rgangan tadqiqotchining e‘tiborini bir necha asosiy tushunchalar tortadi. Ular Forobiyning matnini ochadigan kalit iboralar hisoblanadi: “sinoa (san‘at)”, “malaka (malaka)”, “e‘tiqodiy qarashlar va amaliy ko‘rsatmalar”, “himoya (nusra)”, “rad etish yoki soxtalashtirishni fosh etish (tazyif)”.

Mazkur tushunchalarning mazmuni yoritilganda Forobiyning kalom haqidagi ta‘rifidan uch asosiy jihat kelib chiqadi:

Birinchidan, Forobiy kalom ilmining mohiyatini va mazmuniy chegaralarini belgilaydi, ya‘ni kalom nima ekanini aniq ta‘riflaydi.

Ikkinchidan, kalomning fiqh bilan o‘zaro aloqasini aniqlaydi. Forobiya ko‘ra, kalom aqida asoslarini himoya qilsa, fiqh shariat amaliyotini tartiblaydi – ikkisi bir-birini to‘ldiradi.

Uchinchidan, ushbu ta‘rif kalom ilmining vazifalaridan yana birini ko‘rsatadi: dinni – aqidaviy, shariatga oid jihatlarida – turli e‘tiroz va qarshi fikrlardan himoya qilish usullarini bayon etish [6:109-117].

Forobiy kalom ilmiga bergan ta‘rifni “sinoa” so‘zi bilan boshlaydi. Bu esa kalom ilmi har kimga ham nasib bo‘lavermaydigan, balki uni egallash uchun maxsus tayyorgarlik, intellektual qobiliyat va amaliy ko‘nikmalar talab qiladigan ilm ekanini anglatadi. Ya‘ni bu ilm bilan faqat ma‘lum bir salohiyatga ega bo‘lgan kishilar shug‘ullanishi mumkin.

Ibn Xaldun “sinoa” tushunchasiga izoh berar ekan, uni shunday ta‘riflaydi:

“Sinoa” – bu fikrga asoslangan amaliy faoliyatni egallashdan hosil bo‘ladigan malaka. U amaliy bo‘lgani uchun jismiy, seziladigan faoliyatlarda namoyon bo‘ladi: qurilish, duradgorlik, kitobat, qo‘shiqchilik, ta‘lim berish va boshqalar. “Sinoa”lar shuningdek odamlarning ma‘ishiy ehtiyojlariga xizmat qiladigan kasblarga ham, insonning fikriy va ruhiy qobiliyatiga xos bo‘lgan ilm, hunar va siyosatga doir faoliyatlarga ham bo‘linadi” [6:109-117].

Xuddi shu ma‘noni Jurjoniy ham ta‘kidlaydi. U “sinoa” tushunchasini quyidagicha tariflaydi: “Sinoa” – bu insonda shakllangan shunday malakaki, u orqali inson o‘ylab o‘tirmay, ixtiyoriy ravishda ma‘lum amallarni bajarishi mumkin bo‘ladi. Yoki sinoa – amaliy ishni qanday bajarishni o‘rgatuvchi ilm deb ham ta‘riflangan” [6:109-117].

“Sinoa” atamasidan so‘ng Forobiyning matnida “malaka” so‘zining kelishi kalom ilmining yana bir muhim xususiyatini ta‘kidlaydi. Chunki biror kasb-hunar egasi uni o‘rganishi, unga oid amaliy ishlarni bajarishi mumkin, ammo agar uning ichki moyilligi bo‘lmasa, u bilan bog‘lanib ketmasa, bu ish tafakkurida mustahkam o‘rnashmasa va uni puxta bajarishga zarur tabiiy qobiliyatga ega bo‘lmasa – u ushbu san‘atni yuqori darajada egallay olmaydi va unda ijodkorlik ko‘rsata olmaydi.

Ana shu ichki moyillik, tug‘ma yoki shakllangan qobiliyat, tayyorgarlik holati “malaka” deb ataladi.

Ta‘riflar muallifi (Jurjoniy) “malaka”ni quyidagicha tariflaydi: “Malaka – bu nafsda paydo bo‘ladigan mustahkam sifat bo‘lib, u odat yoki xulq sifatida shakllanadi”.

Agar bir musulmon inson shu malakaga ega bo‘lsa va kalom san‘atini egallagan bo‘lsa, u shu ikki omil yordamida dinni – aqidaviy hamda fiqhiy jihatlar bilan – himoya qila oladi [6:109-117].

O‘tgan asrlar olimlari “sinoa” so‘zini hozirgi kundagidan ancha keng ma‘noda ishlatganlar. Masalan, Tahonaviy “Kashshof istilo‘hat al-funun” asarida bu atamaning ikki xil ma‘nosi mavjudligini aytadi. Oddiy xalq orasida “sinoa” odatda amaliy mashq bilan o‘zlashtiriladigan hunarni anglatgan. Bunga tikuvchilik, to‘quvchilik kabi kasblar misol bo‘ladi. Bu bilimlar mashq qilmasdan paydo bo‘lmaydi. Ammo ilm ahllari, ya‘ni xos kishilar orasida “sinoa” yanada kengroq ma‘noda

qo'llanilgan. Ularning nazarida "sinoa" deb amaliy ish usullariga doir bo'lgan ilmga aytilgan. Bunda maqsad amaliy natija emas, balki aynan o'sha ilmning o'zini egallashdir. Bunday ilm ba'zan mashq orqali o'rganilishi mumkin – tikuvchilik, duradgorlik kabi. Lekin ba'zan mashqsiz ham, faqat nazariy ta'lim orqali o'zlashtiriladi – fiqh, mantiq, nahv, axloqiy hikmat kabi fanlar shular jumlasidandir. Bu fanlarni bilish uchun amaliy ish qilish shart emas. Matnda Forobiy ana shu ikkinchi – nazariy ma'noni nazarda tutgan bo'lishi ehtimoli aytiladi [1:71].

Kalom ilmi "tavhid va sifatlar ilmi" deb ham ataladi. Abu Hanifa bu ilmlarni "fiqh al-akbar" deb atagan. Taftazoniyning "Sharh al-aqid" asarida aytilishicha, amaliy hukmlar bilan bog'liq ilm "shariat va ahkom ilmi" deb ataladi, asosiy ya'ni e'tiqodiy hukmlar bilan bog'liq ilm esa "tavhid va sifatlar ilmi" deb nomlanadi. Kalom ilmi "usul al-din ilmi" deb ham yuritiladi. Irshod al-Qosid muallifi shunday deydi: bu ilm shariat egasi tomonidan ochiq bayon qilingan aqidalar va e'tiqodlarni aqliy dalillar orqali isbotlash, ularni himoya qilish hamda ularga zid bo'lgan barcha fikrlarni rad etishni o'z ichiga oladi [1:71].

Forobiy bu ilmni ikki qisimga ajratadi. Birinchisi e'tiqodlar bilan bog'liq qism, ikkinchisi amallar bilan bog'liq qism [2:54-58].

Forobiy kalom ilmi fiqhdan farq qilishini aytib, fiqh olimi din asoschisi aniq belgilab bergan e'tiqod va amallarni to'g'ri va tayanch nuqta sifatida qabul qilishini, keyin ulardan o'ziga zarur bo'lgan xulosalarni chiqarib olishini aytadi. Kalom olimi esa, fiqh olimining tayanch nuqta qilib olgan narsalarini xulosa chiqarishsiz himoya qilish va ustun qo'yishga harakat qiladi. Agar bir odamda tasodifan bu ikki qobiliyat birlashsa, u kishi ham kalom olimi, ham fiqh olimi bo'ladi. Unda dinni ustun qo'yish – kalom olimligidan, undan xulosalar chiqarish – fiqh olimligidan kelib chiqadi [2:54-58].

Forobiy kalom ilmini oddiygina "diniy e'tiqodlarni isbotlash san'ati" deb ta'riflab qo'ymaydi, balki kalomchilarning vazifalari va uslublariga qarab uni besh turga bo'ladi. Bu besh guruh quydagilar edi:

Birinchi guruh kalomchilar o'z dinidagi e'tiqodlarni himoya qilish uchun dalillar keltiradi.

Ular dalil sifatida payg'ambarlarning mo'jizalarini va undan oldin kelgan, ishonchli va maqbul kishilarning guvohliklarini yoki har ikkisini keltiradilar. Shu yo'l bilan uning rostgo'yligini va yolg'on gapirishi mumkin bo'lmasligi aniqlanadi. Undan keyin u olib kelgan vahiy aql, fikr va nazarga o'rin qolmasligi talab etiladi.

Ikkinchi guruh kalomchilar dinda belgilangan e'tiqodlarini himoya qilish uchun turli dalillarni bir joyga to'playdilar va ularni boshqa dalillar bilan solishtirib, dinning to'g'riligini isbotlaydilar. Keyin hissiy (mahsua't), jamiyatda qabul qilingan narsalar (mashhurot), aqliy narsalar (ma'qulot) narsalarni tekshiradilar. Agar ular orasida din bilan zid bo'lgan narsani ko'rsalar va din asoschisining bu narsani ifoda qilish uchun ishlatgan so'zlarini, hech bo'lmasa, biror ta'vil bilan, o'sha zid narsaga mos qilib izohlash mumkin bo'lsa, uni ta'vil qiladilar. Agar bu mumkin bo'lmasa-yu, lekin o'sha dinga zid narsani rad etish yoki uni dinda mavjud narsaga muvofiq tarzda sharhlash mumkin bo'lsa, buni qiladilar.

Uchinchi guruh kalomchilar – Ba'zi olimlar dinga qarshi e'tirozlarni qarshi tomonning dinlaridan misollar keltirib bartaraf etish mumkin, deb hisoblaydi. Agar boshqa din vakili ularning dinidagi bir narsani tanqid qilsa, ular ham o'sha odamning dinida shunga o'xshash yoki undan ham zaifroq tomonlarni ko'rsatib, o'z dinini himoya qiladilar.

To'rtinchi guruh kalomchilar – ba'zi kalom olimlari keltirgan dalillari aslida kuchli emasligidan raqiblarini dalil bilan yenga olmaganlar. Shuning uchun ular raqiblarini sukut saqlashga majbur qilish uchun boshqa yo'llarga murojaat qilganlar. Masalan, ularni uyaltirish yoki boshiga balo kelishidan qo'rqitish orqali sukut saqlashga majbur qilishgan.

Beshinchi guruh kalomchilar – ularning orasida yana bir guruh bor. Ular o'z dinlarini shubhasiz to'g'ri deb biladilar. Shuning uchun qanday yo'l bilan bo'lmasin, boshqalar oldida uni yuqori ko'rsatish, chiroyli tomondan namoyish etish, unga oid shubhalarni yo'qotish va dushmanlarini undan uzoqlashtirish kerak, deb o'ylaydilar. Buning uchun ular yolg'on, aldash, hiylani noto'g'ri deb hisoblamaydilar. Chunki ularga ko'ra, dinlariga qarshi chiqqan odamlar ikki turga bo'linadi:

birinchi tur - dushman toifasi bo'lib, bundaylarni chetlatish va mag'lub etish uchun yolg'on va hiyla ishlatishga ruxsatli, deb hisoblaydilar. Ikkinchi tur - dushman emas, balki aql va anglash qobiliyati zaif bo'lgan, ruhining dindand olishi mumkin bo'lgan ulushidan bexabarlaridir. Bunday odamlarni ham, ayollar va bolalarga yo'l ko'rsatgandek, yolg'on va hiyla bilan dinga yaqinlashtirish - ularni dindand ulush olishi uchun yo'naltirish - joiz deb biladilar [2:54-58].

XULOSA

Forobiyning yuqoridagi fikrlaridan xulosa qilish mumkinki, kalom ilmi bilan har qanday inson shug'ullana olmasligi, balki u yuqori ilm-salohiyatga ega bo'lishi kerakligini anglash mumkin. Olim kalom ilmi bilan shug'ullanuvchi kishilarni besh toifaga bo'ladi. Bu toifalarning sifatlarini keltirib o'tadi, ammo nomlarini ochiq ifoda qilmagan. Olim ilmlar tasnifida xolislik prinsipiga tayanishni afzal ko'rgan bo'lishi mumkin. Shunga qaramasdan keltirilgan sifatlarga ko'ra taxmin qilishimiz uchun imkon ham yaratib ketgan. Biz islom dini mohiyatidan kelib chiqib yondashadigan bo'lsak, birinchi toifaning vahiy bilan cheklanishi, boshqa bilish turlariga tayanmasligi va unga qat'iy bog'lanishi nuqtai nazaridan ahli hadislar haqida gap ketayotganini taxmin qilish mumkin. Ikkinchi guruh vakillarining esa vahiyga qo'shimcha ravishda hislarga, mashhur amalga va aqlga tayanishlari jihatidan ahli ray ekanligi tushuniladi. Uchinchi guruh vakillari boshqa din vakillariga o'zlarining kitoblaridan dalil keltirish orqali raddiya berishlaridan ko'rinadiki, ular mutakallimlardir. To'rtinchi toifa mutaassibona yondashuvi va keskinligi sabab bizga xorijiylik jamoasini eslatadi, Beshinchi jamoaning belgilaridan katta ehtimol bilan shialar haqida gap ketayotganini taxmin qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI:

1. Abu Nasr Forobiy. Ihso al-ulum. – Misr, 1925. – B. 71.
2. Farabi. Ilimlerin Sayimi. – Istanbul: Türkiye iş bankasi kültür yayinlari, 2024. – S. 54-58; Osman Bakar. Islâm düşüncesinde ilimlerin tasnifi. – Istanbul: insan yayinlari, 2012. – S. 164.

3. Mehmet Bulut. Kelam ilmi hakkında bazı düşünceler //D.E.Ü. İlahiyat Fakültesi Dergisi. – 1989. – Sayı V. – S. 335-348.
4. Muhammed Zübeyr Karaoğlu. Farabi ve İbn Haldun'da ilimlerin tasnifi. Yüksek lisans tezi. – Malatyas: İnönü üniversitesi, 2024. – S. 32-33.
5. Recep Önal. Mâtürîdî'nin Hayatı, Eserleri Ve Kelam İlmi'ndeki Yeri // Akademik İncelemeler Dergisi. – Sayı 3. – S. 325-360.
6. Soid Humaysi. Mafhum ilm al-kalom inda al-Farobi // Insaniyat – Jazoir antropologiya va ijtimoiy fanlar jurnali, 2000-yil, 11-son, – B. 109-117.